

TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING AVZALLIKLARI

Artikova Mervert Kobeyevna

Bank-moliya Akademiyasi 70411302-Biznesni boshqarish (MBA Banking) mutaxassisligi
tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10893316>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda tijorat banklarining masofadan boshqariluvchi xizmatlarni yo'lga qo'yishda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali raqamli xizmatlarni yanada rivojlantirish, bank xizmatlari ommabopligini oshirishga doir taklif va xulosalar shakllantirilgan. Shuningdek, raqamli bankni joriy etishda yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyatga qo'llash imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli banking, xizmatlar, to'lov tizimi, bank xodimlari, omnikanal bankingning, tijorat banklari.

ADVANTAGES OF REMOTE BANKING SERVICES IN COMMERCIAL BANKS

Abstract. The state contains proposals for the development of remote management of commercial banks in Uzbekistan, further development of digital services through the introduction of modern technologies, and an increase in the popularity of banking services. At the same time, he emphasizes the possibilities of introducing innovative technologies when introducing a digital bank.

Keywords: digital banking, services, payment systems, bank staff, omniancially banking, commercial banks.

ПРЕИМУЩЕСТВА ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Аннотация. В данное статье содержатся предложения и выводы по развитию дистанционного обслуживания коммерческих банков, дальнейшему развитию цифровых сервисов за счет внедрения современных технологий, повышению популярности банковских услуг в Узбекистане. Также подчеркивает возможности внедрения новых инновационных технологий при внедрении цифрового банка.

Ключевые слова: цифровой банкинг, услуги, платежные системы, банковский персонал, финансово-банковские услуги, коммерческие банки.

Mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan bank tizimiga va ularning samarali faoliyatiga bog'liq. Shu o'rinda banklarning samarali faoliyat olib borishi, banklar ko'rsatayotgan bank xizmatlarini sifat jihatidan oshishi avvalo banklar tomonidan mijozlari bozorini o'rganish va ular talabidan kelib chiqib bank xizmatlarini ko'rsatilishiga bog'liqdır.

O'zbekistonda bank infratuzilmasini rivojlantirishda bank xizmatlari ommabopligini oshirish, to'lov tizimida raqobatni rivojlantirish, shuningdek, uni yangi zamonaviy to'lov tizimi vositalari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi[1], 2020-yil 12-maydag'i PF-5992-son «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari,[2] 2018-yil 23-martdag'i PQ-3620-son «Bank xizmatlari

ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi [3] qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tijorat banklarining masofaviy xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va innovatsion rivojlanishning tendentsiyalarini inobatga olgan xolda moliyaviy ochiqlik darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagি PQ-3620 son «Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilingan. Qarorda «bank xizmatlari ommabopligrining oshirilishini va bank xizmatlari iste'molchilarini huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalaridan biri ekanligi va bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, moliyaviy ochiqlikni hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish asosiy vazifalari bo'lgan bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati tashkil etilganligi ta'kidlangan»[3].

2020 —2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida "aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish" vazifasi –masofaviy bank xizmatlarini ko`rsatish orqali banklarning nafaqat o'z daromadlarini oshirib borishini, balki xalqimizning turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qilishini e'tiborga olgan holda belgilanganligi bevosita bugungi kunda masofaviy bank xizmatlari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ko`lami kengligidan dalolat beradi.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari tomonidan xizmatlari sifati hamda bank xizmatlarining zamon talablari asosida shakllanishi doimiy e'tibor markazida bo'lmo'i lozim. [4]

Masofaviy bank xizmatlarini ko`rsatish turli bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefonidan foydalanish kifoya. Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishslash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Masofadan xizmat ko`rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaktsion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo`lsa, tranzaktsion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvni hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko`rsatish tizimlarining turlari:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan boǵlangan holda real vaqt davomida to`lovlarni o`tkazish uchun mo`ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o`z ma`lumotlari (to`lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko`chirmalar)ni ko`rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o`z ish joyida yoki boshqa o`ziga qulay sharoitda:

- to`lovlarni o`tkazish;
- to`lov o`tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtida foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o`z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o`z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko`rishi va pul o`tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo`ladi.


Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko`rinishdagi ma`lumotlarni olish tizimdir. Hisobvarağıdan ma`lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so`rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisobvaraǵiga kelib tushgan mablaglar;
- hisobvaraǵidan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi;
- kun davomida o`tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma`lumot olish.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o`tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to`lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so`ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvaraǵidan to`lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.



1-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko`rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (2023 yil 1-yanvar xolatiga) [4]

O`z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablaqlarni tasarruf etish va to`lovlarni amalga oshirish, valyuta mablaqlari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko`rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to`lovlarni o`tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo`yicha imkoniyatlar yaratildi.

Tijorat banklari tomonidan ko`rsatilayotgan masofaviy bank xizmatlari, uning samaradorligi va sifati tahlili shuni ko`rsatadiki, hozirgi kunda banklar o`z mijozlariga taklif etayotgan masofaviy xizmat turlarining ko`lamni anchaga kengaygan. Birgina bank mobil ilovasi orqali mijoz bankka kelmasdan turib bank xizmatlaridan foydalanishi, milliy valyutadagi mablaqlarini xorij valyutasiga komission to`lovsiz erkin konvertatsiya qilishi, onlayn omonatlar qo`yishi va oladigan mablaqlarini hisoblab borish, overdraft kreditlarini olishi va kreditlarni so`ndirib borish, shuningdek, bank mobil ilovasi orqali mijoz o`z mablaqlarini doimo monitoring qilish imkoniga ega bo`ladi.

REFERENCES

1. 2022-2026 yillarga mo`ljallangan yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`grisida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni - www.lex.uz
2. <https://lex.uz/docs/-4811025> O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son «2020-2025-yillarga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to`g`risida»gi farmoni
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 23.03.2018 yildagi PQ-3620-son. «Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo`yicha qo`sishimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori.

4. Aytmuratova, U. J., & Sabirbaev, N. (2022). IJTIMOIY SOHANI QO'LLAB-QUVVATLASHDA DAVLAT BYUDJETINING AHAMIYATI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA). Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 314-320.
5. <https://cbu.uz/oz/payment-systems/remote-banking-services/>
6. Khakimova, Muabara Khalilovna. "USE OF THE BRAINSTORMING METHOD IN THE TEACHING OF SOIL SCIENCE AS A FACTOR OF ACHIEVEMENT OF EFFECTIVENESS." Bulletin of Science and Education 6-3 (109) (2021): 56-61.
7. Rakhimov, D., et al. "Application of hyperspectral and multispectral datasets for mineral mapping." E3S Web of Conferences. Vol. 386. EDP Sciences, 2023.
8. Ubaydullayev, S., Shamsutdinov, N., Yoziyev, L., Kurbanov, A., Yuldashev, S., & Hakimova, M. (2020, December). The influence of different aged Black Saxaul plants on distribution, growth and accumulation of aboveground phytomass of Poa Bulboza L. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 614, No. 1, p. 012163). IOP Publishing.